

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	553
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi	556
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar	559
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском	562
языках и особенности их употребления	562
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalozizmlarining madaniy ta'siri	566
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalozizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	570
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi	574
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	577
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari	582
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	586
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка	589
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	596
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shliqni to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



UO'K: 81.01

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARDA EVFEMIZATSIYALASHGAN MAQOL HAMDA
MATALLARDA MILLIY MADANIY KOD TAHLILI****АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО КОДА В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ
ЭВФЕМИЗИРОВАННЫХ ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ****ANALYSIS OF THE NATIONAL CULTURAL CODE IN UZBEK AND ENGLISH
EUPHEMIZED PROVERBS AND SAYINGS**

Yusupova Muntoza Baxtiyor qizi 
Farg'ona Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Lingvokulturologiya yo'nalishi har qaysi madaniyatda shakllangan olamning lisoniy manzarasi bilan bog'liqdir. Milliy madaniy kod maqol va matallarda faollashib, inson hayotining turli sohalarini mujassamlashtirib, jamoa xotirasida saqlanadi. Tushunchalarning majoziy ma'noda berilishi va ramzlar orqali uzatilishi semiotika fani doirasida tadqiq qilinsa, madaniy kodlar esa lingvokulturologiya fanning tadqiqot obyekti. Tadqiqotda maqol va matal doirasidagi evfemizmlar turli kodlar orqali faollashib, quyidagi madaniy kodlar ajratildi: zoomorfik, biomorfik, animik, gastronomik, antropomorfik, tarixiy, diniy, mitologik, predmetli, vaqt kodi. Maqolada zoomorfik, predmetli va gastronomik madaniy kodlari tematik guruhlariga ajratilgan maqol va matallarga asosan tahlil qilindi.

Аннотация

Направление лингвокультурологии связано с языковым ландшафтом мира, сложившимся в любой культуре. Национальный культурный код активен в пословицах и поговорках, отражающих разные сферы человеческой жизни, и хранится в памяти общества. Если понятия даны в переносном смысле и передаются посредством символов, то они изучаются в рамках семиотики, а культурные коды являются объектом исследования лингвокультурологии. В ходе исследования эвфемизмы в пословицах и речи активировались посредством разных кодов, при этом были выделены следующие культурные коды: зооморфный, биоморфный, анимический, гастрономический, антропоморфный, исторический, религиозный, мифологический, предметный, временной код. В статье на основе пословиц и поговорок, разделенных на тематические группы, проанализированы зооморфный, предметный и гастрономический культурные коды.

Abstract

The direction of linguoculturology is associated with the linguistic landscape of the world formed in any culture. The national cultural code is active in proverbs and sayings, embodying various spheres of human life and stored in the collective memory. While the figurative representation of concepts and their transmission through symbols is studied within the framework of semiotics, cultural codes are the object of research of linguoculturology. In the study, euphemisms within proverbs and sayings are activated through various codes, and the following cultural codes were distinguished: zoomorphic, biomorphic, animic, gastronomic, anthropomorphic, historical, religious, mythological, subject, and time code. The article analyzed zoomorphic, subject and gastronomic cultural codes based on proverbs and sayings divided into thematic groups.

Kalit so'zlar: madaniy kod, lingvokulturologiya, lingvokulturema, maqol, matal, zoomorfik, predmetli kod, tematik guruh.

Ключевые слова: культурный код, лингвокультурология, лингвокультурема, пословица, поговорка, зооморфный, предметный код, тематическая группа.

Key words: cultural code, linguoculturology, linguoculturema, proverb, saying, zoomorphic, subject code, thematic group.

Kirish

Mazkur maqolada evfemizatsiyalashgan maqol va matallar madaniy kodlar asosida faollashganligi tahlilga tortildi. Milliy madaniy kod maqol va matallarda faollashib, inson hayotining turli sohalarini mujassamlashtirib, jamoa xotirasida saqlanadi. Evfemizatsiyalashgan maqol va matallardagi madaniy kodlar tasnifi asosida, ingliz va o'zbek tillarining madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, madaniyatlararo tafovutlar aniqlandi. Ikki til tadqiqi doirasida evfemizatsiyalashgan

maqol va matallar madaniy kodlarining farqi va o'xshash jihatlari aniqlanib, belgi va ramzlar sifatida paremiologik birliklarning kompleks tadqiqi tavsiya etildi. Maqolada evfemizatsiyalashgan maqol va matallarni madaniy kodlar asosida tasniflashda quyidagilarni e'tiborga oldik: hayvon va qushlar nomi bilan bog'liq maqol va matallar – zoomorfik kod; narsa, buyumlar bilan bog'liq maqol va matallar – predmetli kod; oziq-ovqat, ovqat tayyorlash jarayoni bilan bog'liq maqol va matallar – gastronomik kod.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asr ohirida va shuningdek, XXI asrda evfemizmlar masalasi keng tadqiq qilinib, diaxron va sinxron aspektida o'rganilgan. Evfemizmlar leksik tizim sifatida J.Eyton, L.P.Krisin, V.P.Moskvin, A.P.Senichkina[9] tomonidan keng tadqiq etilgan. Evfemizmlarning masalasi va ularning siyosiy diskursda, e'lon matnlarida, folklor hamda diniy matnlarida qo'llanishi qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. N.V.Xudoleyning fikricha[5], milliy-madaniy kod xalqning ma'naviy va ijtimoiy hayotining har qaysi sohasida faollashadi. Ayniqsa milliy madaniy kodlar quyidagi tilshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan: L.M.Kovshova[2], V.N.Teliya[4], V.V.Vorobyov[1]. Maqolada evfemizatsiyalashgan maqol va matallarni madaniy kodlar asosida tahlil qilish jarayonida qiyosiy-chog'ishtirma, metodi va diaxron yondashuvlari qo'llanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Evfemizatsiyalashgan maqol va matallarning madaniy kodlari orasida eng yirik guruh – zoomorfik madaniy kod hisoblanadi. Zoomorfik kod orqali qo'rquv ifodasi evfemizatsiyalashgan maqollar o'zbek tilida *bo'ri*, *sher*, ingliz tilida esa *yo'lbars* leksemasi vositasida faollashadi. Maqollarda dangasalik va noshudlikning ramzi bo'lgan *eshak*, *bitbidiq*, *buzoq*, *ayiq*, *qurbaqa* kabi nominativlar ifoda etadi. Ingliz tilida dangasalik tushunchasi nasihatamuz tarzda to'g'ri ma'noda maqol va matallarda faollashdi, ya'ni bunday maqol birliklarida parafrastik evfemalar kuzatilmaydi. Laganbardorlik tushunchasini o'zbek maqol va matallarida ko'proq tulki namoyon etadi. Sir saqlash va sirni yoyish bilan bog'liq holatlar esa o'zbek tilida *bo'ri* va *mushuk* bilan ifodalanadi. Hovliqish va maqtanchoqlik xislatlari ingliz tilida xo'roz orqali berilsa, o'zbek tilida esa maqtanchoqlik birgina hayvon bilan emas, balki bir nechta hayvonlar orqali tasvirlanadi. Jumladan, echki, xo'roz, g'oz, tovuq, it, tulki va tuya. Manmanlik, mansabparastlik va shuhratparastlik, mansab yoki mavqega o'chlik o'zbek tilida *echki*, *ot*, *qurbaqa*, *to'ng'iz* va *sher* bilan, ingliz tilida esa *maymun* yoki *it*leksemasi yordamida ifodalanadi. Harom tushunchasini kengroq ta'riflab, unga o'g'irlik, poraxo'rlik tushunchalarini ham kiritdik. Ingliz tilida o'g'irlik va poraxo'rlik hayvonlar vositasida ta'riflanmadi, lekin o'zbek tilida *it*, *yo'lbars*, *qarg'a*, *tuya*, *mushuk* kabilar ushbu tushunchalarni ifodalaydi. Turmush qurish vaer-xotin munosabatlari o'zbek tilida tabulashganiga qaramay, ushbu tushunchalarni anglatuvchi evfemizatsiyalashgan maqol va matal ko'p bo'lmasa-da, uchrab turadi. Ingliz tilida esa ayol kishi yoki xotin cow-sigir yoki mare-biya hayvonlari vositasida evfemizatsiyalashtiriladi. Maqolda g'iybat tushunchasini o'zbek tilida *it*, *qurbaqa*, ingliz tilida esa *it* faollashtiradi. O'zbek tilida omadsizlik *tuya*, *it*, ingliz tilida *qo'y* nominativi orqali anglatiladi. Dushmanlik, murosasizlik tushunchalari o'zbek tilida *it*, *mushuk*, *bo'ri* va *ilon*, ingliz tilida esa *burga* tasvirida namoyon etiladi. Nodonlik har ikki tilda ham turli ramzlar orqali beriladi, ya'ni o'zbek tilidagi maqollarda nodonlik ramzi *it*, *eshak*, tuya sanalsa, ingliz tilida bu hayvon *cho'chqadir*. O'zbek xalqining islom diniga e'tiqodi bois *cho'chqa* leksemasi maqol va matallarda deyarli uchramadi[3].

Ayyorlik tushunchasi o'zbek tilida *tulki*, *echki* orqali, ingliz tilida esa *lochin* orqali ifodalandi. Vahshiylik ikki tilda turlicha ta'riflanadi, masalan, o'zbek tilida *bo'ri*, ingliz tilida *fil* sifatida. Ingliz tilidagi maqollarning bir qismini Afrika davlatlari, Hindiston, Janubiy Osiyo davlatlari paremiologik fondi tashkil qilsa, yana bir qismini ingliz tilida so'zlovchi barcha mamlakatlarning paremiologik fondi tashkil etadi, chunki biz nafaqat Buyuk Britaniya, balki Kanada, AQSh mamlakatlarining maqollarini tematik guruhlar tarkibiga kiritdik. Shuning uchun zoomorfik madaniy kod tarkibiga Buyuk Britaniyada istiqomat qilmaydigan hayvonlar ham kiritildi. Jumladan, *fil*, *maymun*, *yo'lbars*, *shervahkz*. Ingliz tilida vahshiylik tushunchasi *fil* orqali faollashadi, bunday maqollar ingliz tiliga hind tilidan kirib kelgan. Xalq ongida *fil* eng vahshiy hayvon hisoblanadi, ayniqsa, quturganda. Shuning uchun ingliz tilidagi maqollarda vahshiylikni ifoda etadigan hayvonlardan faqat *fil* nominativi qo'llanilgan[7].

TILSHUNOSLIK

Obro'sizlik tushunchasi o'zbek tilida *buzoq* va *it* kabi hayvonlar misolida ramziylashtiriladi. Ma'naviyatsizlik ramzi o'zbek tilida *itva eshak*, ingliz tilida esa *cho'chqa* va *baqa* sanaladi.

Keyingi madaniy kod predmetli bo'lib, 13 tematik guruhni o'z ichiga oldi. Sir yoyish va sir saqlash ingliz tilida oshxona javoni, o'zbek tilida elak, g'alvir, yopiq qozon misolida ifoda etiladi. Bunday ifoda uchun g'alvir va elak o'zida hech narsa saqlay olmasligi, yopiq qozon o'z ichidagi taomni, yopiq oshxona javoni esa o'z ichidagi buyumlarni ko'rsata olmasligi asos qilib olinadi. Maqtanchoqlik tushunchasi o'zbek tilida *taka* so'zi, ingliz tilida *bo'sh idish* birikmasi orqali faollashishi kuzatiladi. *Taka* va *bo'sh idish*ning baland ovoz chiqarishi maqtanchoqlik bilan qiyoslanadi.

"O'z manfaatini va foydasini ko'zlash" mazmunidagi maqollar o'zbek tilida zoonimlar orqali evfemizatsiyalashgan bo'lsa-da, ingliz tilida *The squeaky wheel gets the grease- G'ichirayotgan g'ildirak moylanadi* maqoli ingliz mentalitetini ko'rsatadi. Mazkur maqol "*Indamay tursa hech kim qaramaydi, talab qilinsa beriladi*" degan mazmunni ifodalaydi hamda predmetli va gastronomik kodlar orqali faollashadi. Bu esa o'zbek mentalitetiga zid bo'lib, muvofiq ekvivalentini topa olmadik[8].

O'zbek tiliga qaraganda ko'proq ingliz tilida predmetli kodning faollashishi ma'lum bo'ldi. Sabrsizlik, bezovtalik, shoshqaloqlik tushunchasi *qozon*, *arava* so'zlari orqali ifodalanadi, ya'ni *A boiling pot never boils* (*Qozonga qarab o'tirib, kutsang, hech qachon qaynamaydi*); *Don't put the cart before the horse* (*Otni aravadan oldin qo'yma*). Biz ushbu maqollarni o'zbek tiliga tarjimasinigina berishimiz mumkin. Qarilik tushunchasi ingliz tilida *a cracking door* (*g'irchilaydigan eshik*), *an old fiddle* (*eski skripka*) predmetli kodlari orqali faollashadi. *There's many good tune played on an old fiddle* (*Eski skripkada ham yaxshi kuylar chalsa bo'ladi*) maqolidan "qariyalardan yaxshi gaplar, maslahatlar olish mumkin" degan mazmun anglashiladi[6]. Ushbu maqolning majoziy mazmuni butun maqol mazmuniga taalluqli bo'lib, unda evfemizatsiya kuzatilmaydi, lekin *old fiddle* metaforasi orqali evfemizatsiyalashmoqda. Sovchilik, turmush qurish tematik guruhida predmetli kod faollashgan maqollarda qiz va o'g'il bola munchoq va pichoq predmetlari vositasida anglatiladi: *Teshik munchoq yerda qolmas, Po'lat pichoq qinsiz qolmas*.

Gastronomik kod yoki oziq-ovqat, yeyish, ichish jarayoni bilan bog'liq maqol va matallar ikki tilda ham alohida ta'riflanadi. Biz gastronomik kod orqali faollashgan *Tuzsiz xamir tandirda turmas* matalini tilini tiya olmaydigan, uzun tili bois jamiyatga sig'maydigan insonlar haqida gap ketayotganligini ko'rishimiz mumkin. Maqoldagi tuzsiz xamir birikmasi "behuda gap"ni anglatadi, tandir esa ushbu gapni aytgan "inson og'zi"ni ifodalaydi. Matnda ikkita tushuncha majoziy ma'noda qo'llanib, evfemizatsiyalashgan matalni shakllantiradi.

XULOSA

Lingvomadaniyatshunoslik va semiotika fanlarining uyg'unligida "madaniy kod" tushunchasi namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillarida "madaniy kod" tushunchasining farqlanishi maqol va matallar evfemizatsiyalashuvi orqali namoyon bo'ladi. Maqol va matallarning evfemizatsiyalashish jarayonida "madaniy kod" tushunchasi turli guruhlariga bo'linib, zoomorfik, somatik, biomorfik, gastronomik, animik, predmetli, diniy, mifologik, tarixiy kodlarni birlashtiradi. "Madaniy kod"lar evfemizatsiyalashgan maqol va matallar tematik guruhlarasi asosida tahlil etiladi. Har qaysi tematik guruhdagi tabulashgan holat, predmet yoki shaxs ramzlar orqali kodlanish jarayonini faollashtirib, ingliz va o'zbek xalqlarning majoziy fikrlashishini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы): Монография. – М.: РУДН, 1997. – 331 с.
2. Ковшова М.П. Лингвокультурологический анализ идиом, загадок, пословиц и поговорок: антропологический код культуры. – М.: Ленанд, 2019. – 400с.
3. Каландаров Ш. Факторы лингвокультурологического изучения языковых единиц/Молодой учёный, 2017. – № 10 (50). – С.629-632;
4. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологические аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.; Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры / Отв. ред. В.Н.Телия. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 13-24.
5. Худолей Н.В. Национальный код культуры и его актуализация в пословицах, поговорках и классических литературных текстах//Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специальность, 2017. – Vol. 14. – №. 4.–С. 643-653.

6. Kalandarov Sh. Proverbs euphemisms a means of expressing the individuality of the speech of characters//International Journal of Trend in Scientific Research and Development. –P.51-52.
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati.Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990. –B.10-11.
8. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati.Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990. – B.73.
9. Senichkina Ye.P., Slovar evfemizmov russkogo yazika, M., 2008